IRODA BORASIDAGI NAZARIYALAR

G’affarova Nazira Fayzulla qizi

TAFU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

e.mail.naziragaffarova@gmail.com

Xadiraliyeva Sarvinoz Dilmurod qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

e.mail.aylin20082007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda iroda, u haqidagi nazariyalar, mashxur psixolog olim (V.Vundt, E.G`.G`oziyev, A.V.Petrovsky, I.V.Selivanov, U.Djeyms) larning fikrlari bilan yuritilgan. Shuningdek, irodani qanday qilib kuchli qilish, irodali bo’lish va irodasizlikning oqibatlari, irodaning hayotimizdagi ahamiyati va irodalilik darajasini tekshirish uchun bir nechta tadqiqot va metodikalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Iroda, irodaviy sifatlar, hissiy-irodaviy jarayonlar, psixolog olimlar, iroda bilan bog’liq tadqiqotlar.

Аннотация: Данная диссертация посвящена теме воли, теориям о ней и мнениям известных психологов (В. Вундт, Е.Г. Гозьев, А.В. Петровский, И.В. Селиванов, У.Джеймс). Также представлены несколько исследований и методов, изучающих способы укрепления силы воли, последствия наличия и отсутствия силы воли, важность силы воли в нашей жизни и уровень её развития.

Ключевые слова: Сила воли, волевые качества, эмоционально-волевые процессы, психологи, исследования, связанные с силой воли.

Abstract: This thesis is about will, theories about it, and the opinions of famous psychologists (V. Wundt, E.G.Goziev, A.V.Petrovsky, I.V.Selivanov, U.Dzheyms). Also, several studies and methods are presented to examine how to make willpower strong, the consequences of willpower and lack of willpower, the importance of willpower in our lives, and the level of willpower.

Keywords: Willpower, volitional qualities, emotional-volitional processes, psychologists, research related to willpower.

Kirish:

Iroda insonning hayoti davomida erishadigan muvaffaqiyat uning asosiy omillaridan biridir.U shaxsni bardoshli qiladi ,o'ziga o'zi qilayotgan ishlari motivatsiya bo'lishi uchun turtki bo'ladi.

Asosiy qism:

Doim inson 2 ko'rinishda harakat qiladi.

1. Ixtiyorsiz
2. Ixtiyoriy

Ixtiyorsiz harakatlar asosan maqsadsiz impulsiv tarzda yuzaga keladi. Masalan:yo'talish, nafas olish, kipriklarni pir pirashi, yurayotganda beixtiyor qo'llarimizning chayqalishi va shu kabi ayrim tanamizda kechadigan hodisalardir. Ular biz xohlamasak ham doim sodir bo'ladi.

Ixtiyoriy harakatlar bu biz biror maqsadni yoki foydani ko'zlab qiladigan harakatlarimizdir jarayon fanda '' Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog'liq harakatlardir ''deb izohlanadi.

Bir qancha sharq va g'arb psixolog olimlari quyidagi fikrlarni bildirishgan:

A.V.Petrovsky darsligida irodani bu kishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'zini -o'zi boshqarishi demakdir deya ta'rif beriladi.

E.G'.G'oziyevning ''Umumiy psixologiya'' darsligida **iroda-** bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deydi.

Irodaning 9 ta sifati mavjud .Bular:

— Maqsadga intiluvchanlik

— Tashabbuskorlik

— Dadillik

—Qat'iyatlilik

—Prinsipallik

—Mustaqillik

—O'zini tuta bilish

—Matonatlilik

—Intizomlilik

agarda bu sifatlar bizda mavjud bo'lsa biz ma'lum darajada irodali shaxs bo'lishimiz mumkin.Irodali bo'lishimiz uchun yuqoridgi sifatlarni o'zimizda rivojlantirishimiz kerak. Buning uchun biz uchun qiyin bo'lib ko'ringan , hech oxiriga yetkaza olmaydigan ishimizni qilib ko'rishimiz mukin. Masalan, erta uyg'onish, kitob qiziqarli bo'lmasada uni oxirigacha o'qib tugatish, yangi mashg'ulot topib u bilan muntazam shug'ullanish, doim reja bilan ish tutish kabilar.

Irodali va irodasiz insonlar o'rtasida bir nechta tafovutlar mavjud. Irodali insonlar o’ziga ishongan bo’ladi, xatolarini tan oladi, har qanday vaziyatda ham o’zlarini yo’qotib qo’ymaydi. Irodasiz insonlar doim ularning vazifasini birovlar bajarib berishga majburdek qaraydi, mas’uliyatni bo’yniga olishni istashmaydi, noliyverishadi , bir ishni oxirigacha qilishmaydi. Ular o’rtasidagi eng katta farq maqsadga erishishlaridadir. Irodali insonlar sabr bilan harakat qilib ko’zlagan manzillariga yetib borishsa, irodasiz insonlar ko’pincha yo’lning o’rtasida qolib ketishadi.

Insonning irodasi hissiy -irodaviy soha bilan ham bog’liq. Bu degani irada va inson hissiyotlari o’zoro bir -biri bilan bog’liq. Jumladan, biz irodani maqsadga erishish yo’lidagi turtki, chidamlilik deb atagan bo’lsak, hissiyotlar insonni undaydi.Unga xohish - istak beradi. Shu asnoda iroda shakllanadi.

Xulosa:

Gapimiz so’ngida shuni aytishimiz mumkinki, iroda bu psixologik jarayon. Har qanday ham fiziologik, ham psixologik jihatdan yetuk inson o’z maqsadlari yo’lida kurashadi, to’g’ri mulohaza qiladi, hissiyotlari va aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda to’g’ri qaror qabul qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova S.A. Mavlonov M.M. To'ychiyeva S.M. Yosh va

pedagogik psixologiya. -T.: TDPU, 2004.

2. Xaydarov F.I. Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. -T.: TDPU, 2010. 400

3. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. -T.: Yangi asr avlodi.

4. G'oziyev E.G. Psixologiya fani XXI asrda. -T.: Universitet.

5. Karimova V.M. Psixologiya. -T.: Sharq, 2000. -256 b.